

**BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TABIIY MATERIALLAR BILAN ISHLASH JARAYONINING AFZALLIKLARI**

*Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

*Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinif texnologiya darslarida tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonlarining yutuqlari hamda afzallik tomonlari yoritilgan. Texnologiya darslarining har bir jihati juda muhimligi, amaliy ishlatni tashkil etish samaradorligi aytib o'tilgan. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonidagi erishish mumkin bo'lgan natijalar haqida so'z yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: tabiiy material, ekskursiya, ekologiya, po'stloq, gerbariy, amaliy, afzallik, jarayon, uslub.*

**ПОЛЕЗНЫЕ СТОРОНЫ ПРОЦЕССА РАБОТЫ С ПРИРОДНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ**

*Махмудова Рухсора Наврозовна*  
*Бухарский Государственный Педагогический Институт 2 ступень магистратура*

*Аннотация: В данной статье освещаются достижения и преимущества процессов работы с природными материалами на уроках технологии начальной школы. Отмечена важность каждого аспекта занятий по технологии, эффективность организации практического использования. Обсуждаются результаты, которых можно достичь в процессе работы с природными материалами.*

*Ключевые слова: природный материал, экскурсия, экология, кора, гербарий, практический, преимущество, процесс, метод.*

**BENEFICIAL ASPECTS OF THE PROCESS OF WORKING WITH NATURAL MATERIALS IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY LESSONS**

*Makhmudova Rukhsora Navrozovna*  
*Bukhara State Pedagogical Institute 2nd stage master's degree*

*Annotation : This article highlights the achievements and advantages of the processes of working with natural materials in elementary school technology classes. The importance of every aspect of technology classes, the effectiveness of organizing practical use was mentioned. The results that can be achieved in the process of working with natural materials are discussed.*

*Key words: natural material, excursion, ecology, bark, herbarium, practical, advantage, process, method.*

Kirish. O'zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, yog'ochlar va o'simliklarga boy o'lkadir. Bu tabiiy boyliklardan sanoatda, turmushda foydalanadishimiz bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material sifatida ham foydalanishimiz mumkin. O'quvchilarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go'zalliklarni ko'ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarini, konstruktorlik g'oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg'otadi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiyadi va ulami ishlatish bilim, ko'nikma, malakalarini beradi. Turli tabiiy materiallarni to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari o'ylab topgan tasvir uchun material to'playdilar. Yoki aksincha, avval turli barglarni to'plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Tabiiy materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofidagi o'simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallarni qachon va qanday to'plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrash masalalariga alohida e'tibor berish har bir o'quvchining burchidir.

Asosiy qism. Hozirgi kunda texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Texnologiya darslarida o'quvchilarni turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish darslarini tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash ishlarni eslab qolishga qodir emaslar.

Texnologiya darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari - qovun, tarvuz, qovoq urug'lari, mevalar - olcha, o'rik, shaftoli danaklari va shu kabilar, baliq tangalari va qanotlari, jo'xori va makkajo'xori so'talari, paxta chanog'i, yong'oq po'sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonlari o'z navbatida o'quvchilarni atrof-muhitga, ekologiyaga bo'lgan munosabatlarini shakllantirishga ham yordam beradi. O'quvchilar ekskursiyaga chiqishganlarida o'z qo'llari bilan gerbariy tayyorlash uchun barglarni yig'ar ekan, daryo va kol qirg'oqlaridan chig'anoqlar topar ekan, daraxt shoxlari, po'stloqlari va hattoki tomirlaridan ham nimadir yasay olishlari mumkinligini bilib albatta tabiatga, atrof -muhitga bolgan qiziqishlari oshib, tabiat inom etgan barcha narsadan oqilona foydalanish ko'nikmalari shakllanib boradi.

Turli xil tabiiy materiallarni butun yil davomida to'plash lozim, chunki yilning har bir fasli o'z xususiyatlariga egadir. Erta bahorda lola gulini quritib olish, terak popugini, daraxt va butalarni yosh novdasini, yozda mevalarning urug'larini, rezavorlarning donalarini, turli gullarni, kuzda daraxtlarning xilma-xil barglarini, mevalarini, mevalarini va shu kabilarni to'plash mumkin.

Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan turli xil materiallarni mavsumga ko'ra yig'ib boriladi va kerakli turlarga ajratib qo'yiladi.

Turli xil turli materiallarni to'playotgan har bir o'quvchi turli materiallarni tartibli yig'ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barglarni to'plash jarayonida daraxtlar, butalar, o'simliklar shoxini qo'pollik qilib sindirish, gul va shu kabilarni o'ylamasdan to'plash tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim.

Turli xil turli materiallarni to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari topgan manzara uchun material to'playdilar. Va aksincha, avval qandaydir materialni to'plab, keyin ishni bajarishni aniqlashlari mumkin.

Xulosa. Turli xil turli materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Sayr vaqtida o'qituvchi har bir turli material haqida kerakli tushunchalar va ularni yig'ish, qanday saqlash borasida zarur bo'lgan ko'rsatmalarni beradi. Mazkur ishlarning o'z vaqtida bajarilishi, turli materiallardan foydalanish mashg'ulotlarining samarali o'tishida katta ahamiyatga egadir. Bu o'z navbatida o'qituvchidan va o'quvchilardan katta ma'suliyat talab qiladigan jarayondir. Mashg'ulot uchun kerak bo'ladigan turli materiallarni qanchalik ko'p to'plansa, o'quvchilar tomonidan bajariladigan topshiriqlarning mazmuni ham shunchalik turli-tuman bo'ladi. Turli materiallarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofda o'simlik dunyosi, hashoratlilar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash, unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash masalalariga alohida e'tibor berish, tabiiy materiallar bilan ishlash inson organizmi uchun ham foydali ekanligini o'rgatish lozimdir. Tabiat bilan har qanday uchrashuvdan: yozgi kanikul va bolalar oromgohidagi texnologiya hamda tabiatshunoslik darslaridagi ekskursiyalardan turli materiallarni to'plash maqsadida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'RVMsining "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 11.06.2019 yil 487-sonli Shavkat Mirziyoyev Miromonovich.PQ.

2. O'RQ "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2019y 22-dekabrda, Senat tomonidan 2019y 14-dekabrda ma'qullangan.

3. Мирзаева Д. Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш // Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 1/С. – С. 141-148.

4. Мирзаева, Дилфуза. «Арт педагогикаси воситасида мактабгача таълим ташкилоти болалари ижодкорлигини ривожлантириш.» Общество и инновации 3.1/С (2022): 141-148.

5. Мирзаева, Дилфуза Шавкатовна, and Азизабону Элмуродовна Хамраева. «АРТПЕДАГОГИКА В СИСТЕМЕ ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.» ИЖТИМОЙ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ 2.2 (2022): 87-91.

6. Shavkatovna, Mirzayeva Dिल्фуза. «Art Therapy as a Means of Adaptation of Young Children to PreSchool.» EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 2.2 (2022): 192-196.

7. Hakimova, N. (2021). ОБУЧЕНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).

8. Нигматова Мавджда Махмудовна, Мирзаева Дильфуза Шавкатовна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ // Вестник науки и образования. 2021. №64-3 (117)

9. Нигматова Мавджда Махмудовна, Мирзаева Дильфуза Шавкатовна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ // Вестник науки и образования. 2021. №64-3 (117).

10. Нигматова Мавджда Махмудовна, Мирзаева Дильфуза Шавкатовна РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСТВА ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА С ПОМОЩЬЮ АРТ ПЕДАГОГИКИ // Вестник науки и образования. 2021. №64-3 (117).

11. Turdiyeva, M. J. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK O'YINLAR VA ULARNING SHAXS RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI. Scientific progress, 2(7), 990-995.

12. Turdiyeva, Mohira Juraqulovna, and Gulzoda Mardon Qizi Davronova. «МАКТАВГАСЧА YOSH DAGI BOLALAR IJODIY QOBILiyATLARINI YUZAGA CHIqARISHDA O'YINCHOQLARNING ROLL.» Scientific progress 2.7 (2021): 996-1002.

13. Гафурова, Дилбар Хакимовна. «РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ И УМЕНИЙ РЕЧЕВОГО ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.» БОШҚАРУВ ВА ЭТИКА ҚОИДАЛАРИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ 2.2 (2022): 134-140.